XALQ DEPUTATLARI BAG‘DOD TUMANI KENGASHI
QARORI

Bag‘dod tumani 20733571, Mustaqillik ko‘chasi, 15-uy. Tel:(73) 479-27-66

2022 - yil 8 - fevral VI-40-24-11-152-K/22 Bag'dod tumani hokimligi

Xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 7-yanvardagi “Bag‘dod tumani bo‘yicha 2022-yil uchun jismoniy va yuridik shaxslarning yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-37-1-11-152-K/22-sonli hamda 2022-yil 8-yanvardagi “Bag‘dod tumanining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-38-4-11-152-K/22-sonli qarorlarining ilovalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6121-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining 2022-yil 2-fevral kungi “Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi VI-39-65-11-0-K/21-son “Farg‘ona viloyati bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni ko‘rib chiqish (belgilash) haqida”gi qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi VI-41-17-11-0-K/22-sonli qarori inobatga olinsin.

2. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 7-yanvardagi VI-37-1-11-152-K/22-sonli qarorining 1 va 2-ilovalari hamda 2022-yil 8-yanvardagi VI-38-4-11-152-K/22-sonli qarorining 4 va 5-ilovalari mazkur qarorning 1 va 2-ilovalariga muvofiq yangi tahrirda bayon etilsin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Dehqonov) tumandagi tegishli vakolatli organlar bilan birgalikda mazkur qaror bilan belgilangan bazaviy soliq stavkalariga kiritilayotgan koeffitsiyentlarni qo‘llab borilishi yuzasidan o‘rnatilgan tartibda monitoringlar o‘tkazib borsin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari O‘zbekiston Respublikasining “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan mazkur qaror bilan belgilangan bazaviy soliq stavkalariga kiritilayotgan koeffitsiyentlarni qo‘llab borilishi yuzasidan deputatlik va jamoatchilik nazoratini o‘rnatsin.

5. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 23-yanvardagi “Bag‘dod tumani bo‘yicha 2022-yil uchun jismoniy va yuridik shaxslarning yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-37-6-11-152-K/22-sonli qarori bekor qilinsin.

6. Mazkur qaror “Bag‘dod hayoti” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlariga joylashtirilsin.

7. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi F.Mamatqulov hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Dehqonovlar zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi **Mamatqulov F. A.**

Халқ депутатлари Бағдод туман
Кенгашининг
2022 йил 8 февралдаги
VI-40-24-11-152-K/22-сон қарорига
1-илова

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

Ming so‘m

T/r	Shahar va tuman nomi	MFY lar nomi	Koeffitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun (1 ga uchun)
1	Bag‘dod tumani	Na’muna MFY	0,90	19 575
2	Bag‘dod tumani	Amirobod MFY	1,00	21 750
3	Bag‘dod tumani	Chekmirzaobod MFY	0,90	19 575
4	Bag‘dod tumani	Bog‘ishamol MFY	0,90	19 575
5	Bag‘dod tumani	Qirqvolida MFY	0,90	19 575
6	Bag‘dod tumani	Obod yurt MFY	0,90	19 575
7	Bag‘dod tumani	Xo‘jaqishlok MFY	1,00	21 750
8	Bag‘dod tumani	Mirishkor MFY	0,90	19 575
9	Bag‘dod tumani	Qaroqchitol MFY	0,79	17 183
10	Bag‘dod tumani	Qarovultepa MFY	0,90	19 575
11	Bag‘dod tumani	Paxtaobod MFY	1,00	21 750
12	Bag‘dod tumani	Cho‘rindi MFY	1,00	21 750
13	Bag‘dod tumani	Qo‘shchinor MFY	0,79	17 183
14	Bag‘dod tumani	Qashqari MFY	0,70	15 225
15	Bag‘dod tumani	Samandarak MFY	1,00	21 750
16	Bag‘dod tumani	Muruvat MFY	1,20	26 100
17	Bag‘dod tumani	Navro‘z MFY	0,90	19 575
18	Bag‘dod tumani	Qorako‘l MFY	1,00	21 750
19	Bag‘dod tumani	Qug‘oli MFY	0,90	19 575
20	Bag‘dod tumani	Irg‘oli MFY	0,90	19 575

21	Bag‘dod tumani	Qaxat MFY	1,00	21 750
22	Bag‘dod tumani	Chuvalanchi MFY	1,00	21 750
23	Bag‘dod tumani	Tuvadaq MFY	0,79	17 183
24	Bag‘dod tumani	Xitoy MFY	0,79	17 183
25	Bag‘dod tumani	Istiqlol MFY	0,79	17 183
26	Bag‘dod tumani	Bedarak MFY	0,79	17 183
27	Bag‘dod tumani	Do‘rmancha MFY	0,79	17 183
28	Bag‘dod tumani	Muqumiy MFY	1,08	23 490
29	Bag‘dod tumani	Do‘stlik MFY	1,08	23 490
30	Bag‘dod tumani	O‘zbekiston MFY	1,08	23 490
31	Bag‘dod tumani	Ittifoq MFY	1,08	23 490
32	Bag‘dod tumani	Nurafshon MFY	0,90	19 575
33	Bag‘dod tumani	Dasht MFY	0,79	17 183
34	Bag‘dod tumani	Ko‘shtegirmon 1 MFY	1,08	23 490
35	Bag‘dod tumani	Cho‘lyunus MFY	0,90	19 575
36	Bag‘dod tumani	Olchin MFY	0,90	19 575
37	Bag‘dod tumani	Ko‘shtegirmon 2 MFY	1,08	23 490
38	Bag‘dod tumani	Ultarma MFY	1,08	23 490
39	Bag‘dod tumani	Yuksalish MFY	0,90	19 575
40	Bag‘dod tumani	Bordon MFY	1,00	21 750
41	Bag‘dod tumani	Cheksaroy MFY	0,79	17 183
42	Bag‘dod tumani	Matqulobod MFY	0,90	19 575
43	Bag‘dod tumani	Karimbobo MFY	0,79	17 183
44	Bag‘dod tumani	Oydinbuloq MFY	0,79	17 183
45	Bag‘dod tumani	Sayidobod MFY	0,90	19 575
46	Bag‘dod tumani	Samarqand MFY	1,00	21 750
47	Bag‘dod tumani	Mehnatobod MFY	0,90	19 575
48	Bag‘dod tumani	Bag‘dod MFY	1,00	21 750
49	Bag‘dod tumani	Zafarobod MFY	0,79	17 183
50	Bag‘dod tumani	Begobod MFY	1,00	21 750
51	Bag‘dod tumani	Konizar MFY	0,79	17 183

52	Bag‘dod tumani	Sho‘raqyer MFY	1,00	21 750
53	Bag‘dod tumani	Mirzaobod MFY	1,00	21 750
54	Bag‘dod tumani	Yuqori Mirzaobod MFY	0,79	17 183
55	Bag‘dod tumani	Maylavoy MFY	0,90	19 575
56	Bag‘dod tumani	Sahovat MFY	1,08	23 490
57	Bag‘dod tumani	Guliston MFY	0,85	18 488
58	Bag‘dod tumani	Yangiobod MFY	0,90	19 575
59	Bag‘dod tumani	Olchin MFY	0,90	19 575

Халқ депутатлари Бағдод туман
Кенгашининг
2022 йил 8 февралдаги
VI-40-24-11-152-K/22-сон қарорига
2-илова

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

Ming so‘m

T/r	Shahar va tuman nomi	MFY lar nomi	Koeffitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun (1 kv uchun)
1	Bag‘dod tumani	Na’muna MFY	0,90	175,5
2	Bag‘dod tumani	Amirobod MFY	1,00	195,0
3	Bag‘dod tumani	Chekmirzaobod MFY	0,90	175,5
4	Bag‘dod tumani	Bog‘ishamol MFY	0,80	156,0
5	Bag‘dod tumani	Qirqvolida MFY	1,00	195,0
6	Bag‘dod tumani	Obod yurt MFY	0,90	175,5
7	Bag‘dod tumani	Xo‘jaqishlok MFY	0,90	175,5
8	Bag‘dod tumani	Mirishkor MFY	0,90	175,5
9	Bag‘dod tumani	Qaroqchitol MFY	0,90	175,5
10	Bag‘dod tumani	Qarovultepa MFY	0,80	156,0
11	Bag‘dod tumani	Paxtaobod MFY	1,00	195,0
12	Bag‘dod tumani	Cho‘rindi MFY	1,00	195,0
13	Bag‘dod tumani	Qo‘shchinor MFY	1,00	195,0
14	Bag‘dod tumani	Qashqari MFY	0,90	175,5
15	Bag‘dod tumani	Samandarak MFY	0,90	175,5
16	Bag‘dod tumani	Muruvat MFY	0,80	156,0
17	Bag‘dod tumani	Navro‘z MFY	0,90	175,5
18	Bag‘dod tumani	Qorako‘l MFY	1,00	195,0
19	Bag‘dod tumani	Qug‘oli MFY	0,90	175,5
20	Bag‘dod tumani	Irg‘oli MFY	0,90	175,5
21	Bag‘dod tumani	Qaxat MFY	0,90	175,5

22	Bag‘dod tumani	Chuvalanchi MFY	1,00	195,0
23	Bag‘dod tumani	Tuvadaq MFY	0,90	175,5
24	Bag‘dod tumani	Xitoy MFY	0,90	175,5
25	Bag‘dod tumani	Istiqlol MFY	0,80	156,0
26	Bag‘dod tumani	Bedarak MFY	0,90	175,5
27	Bag‘dod tumani	Do‘rmancha MFY	0,80	156,0
28	Bag‘dod tumani	Muqumiy MFY	1,10	214,5
29	Bag‘dod tumani	Do‘stlik MFY	1,10	214,5
30	Bag‘dod tumani	O‘zbekiston MFY	1,10	214,5
31	Bag‘dod tumani	Ittifoq MFY	1,10	214,5
32	Bag‘dod tumani	Nurafshon MFY	0,90	175,5
33	Bag‘dod tumani	Dasht MFY	0,80	156,0
34	Bag‘dod tumani	Ko‘shtegirmon 1 Mfy	0,90	175,5
35	Bag‘dod tumani	Chulyunus MFY	0,90	175,5
36	Bag‘dod tumani	Olchin MFY	0,90	175,5
37	Bag‘dod tumani	Ko‘shtegirmon 2 Mfy	0,90	175,5
38	Bag‘dod tumani	Ultarma MFY	0,90	175,5
39	Bag‘dod tumani	Yuksalish MFY	0,90	175,5
40	Bag‘dod tumani	Bordon MFY	0,90	175,5
41	Bag‘dod tumani	Cheksaroy MFY	0,90	175,5
42	Bag‘dod tumani	Matqulobod MFY	0,90	175,5
43	Bag‘dod tumani	Karimbobo MFY	0,80	156,0
44	Bag‘dod tumani	Oydinbuloq MFY	0,80	156,0
45	Bag‘dod tumani	Sayidobod MFY	0,90	175,5
46	Bag‘dod tumani	Samarqand MFY	0,90	175,5
47	Bag‘dod tumani	Mehnatobod MFY	0,90	175,5
48	Bag‘dod tumani	Bag‘dod MFY	0,90	175,5
49	Bag‘dod tumani	Zafarobod MFY	0,80	156,0
50	Bag‘dod tumani	Begobod MFY	0,90	175,5
51	Bag‘dod tumani	Konizar MFY	0,90	175,5
52	Bag‘dod tumani	Sho‘raqer MFY	0,90	175,5
53	Bag‘dod tumani	Mirzaobod MFY	0,90	175,5
54	Bag‘dod tumani	Yuqori Mirzaobod	0,90	175,5

55	Bag‘dod tumani	Maylavoy MFY	0,90	175,5
56	Bag‘dod tumani	Sahovat MFY	0,90	175,5
57	Bag‘dod tumani	Guliston MFY	0,85	165,8
58	Bag‘dod tumani	Yangiobod MFY	0,85	165,8
59	Bag‘dod tumani	Olchin MFY	0,85	165,8